
Farg'onada "Onalarga ehtirom" festivali boshlanmoqda

Joriy yilning 20-may sanasiga qadar Farg'onaviy viloyati shahar va tumanlarida yildan yilga an'anaviy tus olayotgan "Onalarga ehtirom" festivali bo'lib o'tadi.

Farzandlar uchun borlig'ini fido qilgan Onalardek ulug' zotlarga bo'lgan yuksak ehtiromni namoyon etish, o'sib kelayotgan yosh avlodning ongi shuurida ota-onaga hurmat, farzandlik burchlarini ado etish, ularni qadrlash kabi fazilatlarni shakllantirish kabi g'oyalarni mujassam etgan ushbu festival bu yil uchinchi bor o'tkaziladi.

Viloyat hokimining 2021-yil 28-apreldagi "Farg'onaviy viloyatida "Onalarga ehtirom" festivalini yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi 168-sonli qarori ijrosi doirasida tashkil etiladigan festival, 15-mayga qadar shahar va tumanlar kesimida o'tkaziladi, yakuniy viloyat bosqichi 20-may kuni Farg'onaviy shahridagi Islom Karimov nomli viloyat teatr-konsert saroyi sahnida taniqli san'atkorlar ishtirokida gala-konsert bilan birga bo'lib o'tadi.

2023-05-02 16:45:49